

BUXORO VILOYATI G'JDUVON TUMANI QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQLARI VA ULARNING YILLAR DAVOMIDA O'ZGARISHINI TAHLIL QILISH

Jabborova Gulchiroy Azimjon qizi

Buxoro Davlat universiteti

1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17876576>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyatida joylashgan G'ijduvon tumanining qishloq xo'jaligi va uning asosiy tarmoqlari, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yillar davomidagi o'zgarishlari geografik jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari tumandagi dehqon xo'jaliklari, fermer va tomorqa xo'jaliklari, tuman qishloq xo'jaligining viloyat miqyosdagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, donli ekinlar, texnik ekinlar, tomorqa yerlari, seleksiya.

Аннотация: В данной статье географически исследовано сельское хозяйство Гиждуванского района, расположенного в Бухарской области, и его основные отрасли. Рассмотрены изменения в производстве продукции в сферах земледелия и животноводства на протяжении ряда лет. Кроме того, проанализирована деятельность деханских, фермерских и приусадебных хозяйств района, а также определено место и значение Гиждуванского района в рейтинге сельского хозяйства области.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, земледелие, животноводство, зерновые культуры, технические культуры, приусадебные участки, селекция.

Abstract: This article provides a geographical study of the agricultural sector of Gijduvan district, located in the Bukhara region, and its main branches. It examines the changes in production within the crop-growing and livestock sectors over the years. In addition, the activities of dehqan farms, farmer enterprises, and household plots in the district are analyzed, along with the district's ranking and significance within the agricultural sector of the region.

Key words: Agriculture, crop farming, animal husbandry, grain crops, industrial crops, household plots, selection


Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 16-17-fevral kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida hududning zamonaviy qiyofasini yaratish, sanoatning ishlab chiqarish va qayta ishlash, transport-logistika, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sayyohlik salohiyatini yanada oshirish bo'yicha soha mutasaddilariga topshiriqlar bergandi. Mazkur topshiriqlar ijroasi doirasida viloyatda ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan Kogon tumanida ham yangi sanoat korxonalari, tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi hamda qishloq xo'jaligida mahalliy lashtirish darajasi va eksport hajmi oshdi. Transport va servis infratuzilmasi rivojlanib, sayyohlar oqimi ko'paydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev viloyatimizga tashriflari chog'ida mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash, tumanlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, meva-sabzavot, uzum hamda poliz mahsulotlarini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida issiqxonalar tashkil etish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilanishini aytib o'tgan edilar.

G'ijduvon tumani Buxoro viloyatining asosiy qishloq xo'jaligi va sanoat tumanlaridan biri hisoblanadi. Tumanning iqtisodiy rivojlanishida qishloq xo'jaligi va sanoat sohalari alohida o'rin tutadi. Hududning tabiiy resurslari va qishloq xo'jaligiga mos iqlim sharoiti, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirish uchun kata imkoniyatlar yaratadi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning eng qadimgi va muhim tarmoqlaridan biri. U hozirgi kunda nafaqat O'zbekiston balki, jahon va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida muhim o'rin egallaydi.


G'ijduvon tumani qishloq xo'jaligi sohasida muhim o'rin tutadi va viloyatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy tarmoqlardan biridir.

Qishloq xo'jaligi deganda, uning ikki yirik tarmog'i ya'ni dehqonchilik va chorvachilik tushuniladi. Qishloq xo'jaligida paxtachilik, o'rmonchilik, baliqchilik, g'allachilik, chorvachilik va bog'dorchilik yetakchilik qiladi.



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (105,1 foiz), Peshku (104,4 foiz), G'ijduvon (104,0 foiz) tumanlarda kuzatildi. Kogon (78,8 foiz) va Buxoro (100,1 foiz) shaharlarda esa aksincha past sur'atlar kuzatilgan. Ushbu ko'rsatgich bo'yicha G'ijduvon tumani 3-o'rinni egallaydi.

G'ijduvon tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi, foizda



2024-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Jondor tumanlarida asosan dehqonchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Kogon, G'ijduvon, Qorako'l tumanlarida esa qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'i yaxshi rivojlangan.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha G'ijduvon tumanida taqsimlanishi (foizda)



DEHQONCHILIK.



G'ijduvon tumani iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Qishloq xo'jaligida paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va bog'dorchilik yetakchilik qiladi.

G'ijduvon tumanining umumiy yer maydoni 384 000 ga bo'lib, shundan 22100 ga ri qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlardir. Miqdor jihatdan keying o'rinlarda fuqarolar foydalanadigan yerlar va zaxira yerlari tashkil etadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha barcha qishloq xo'jalik ekinlari ekin maydonining taqsimlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, fermer xo'jaliklari 92,5 ming ga, dehqon xo'jaliklariga 260,7 ming ga, qishloq xo'jalik korxonalariga 30,1 ming ga ekin ekiladigan yer to'g'ri keladi. Gijduvon tumanda paxta va g'allachilik fermer xo'jaligining ko'pligidan bilish mumkinki, qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotida dehqonchilik ustun turadi. Tumanda asosan sug'orma dehqonchilik qilish keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 19,9 ming gektar bo'lib, qishloq xo'jalik yerlarining 90 % ga yaqin qismini egallaydi.

G'ijduvon tumanida qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Sug'orish tizimlari takomillashtirilgan, yangi sug'oriladigan yerlar kengaytirilmoqda. Shuningdek, fermerlar va dehqon xo'jaliklariga davlat tomonidan ko'mak ko'rsatilmoqda, bu esa hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tumanda yetishtiriladigan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari orasida don ekinlari, paxta va texnik ekinlar, sabzavotlar, mevalar va poliz ekinlari mavjud. Jumladan, bug'doy, g'alla, mosh, loviya, makkajo'xori kabi don ekinlari keng maydonda ekiladi va yuqori hosil beradi. Sabzavot yetishtirish tuman iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa kartoshka, piyoz, sabzi, baqlajon, sholg'om, turp kabi mahsulotlar ko'p yetishtiriladi. Meva-sabzavot bog'lari va poliz ekinlari ham rivojlanmoqda, bu esa aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish bilan birga eksport imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Hudud nomi	Jami don mahsulotlari tonna	Sabzavot tonna	Meva-rezavor Tonna
Buxoro viloyati	632 399,4	939 494,8	266673,8
G'ijduvon tumani	58035,4	96107,7	2669,9

Hudud nomi	Kartoshka tonna	Poliz ekinlari tonna	Uzum Tonna
Buxoro viloyati	278681,5	150866,0	184742,8
G'ijduvon tumani	27083,1	9189,1	20341,2

Chorvachilik



Chorvachilik — O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida chorvachilik muhim o‘rin egallab, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda, bandlikni oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chorvachilik orqali go’sht, sut, tuxum, teri, jun kabi mahsulotlar yetishtiriladi hamda ular yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatining xomashyo bazasini shakllantiradi. Shunday tarmoqlar qatorida G‘ijduvon tumani chorvachilik salohiyati bilan e‘tiborga molik hududlardan biridir. Tumanda chorvachilik asosan oilaviy hamda fermer xo‘jaliklarining asosiy faoliyat yo‘nalishi bo‘lib, aholining tomorqa xo‘jaliklarida qoramol, qo‘y, echki va parranda boqilishi keng tarqalgan. Chorvachilikning tarmoq sifatida rivojlanishi hududning tabiiy sharoitlari, yaylovlar, yem-xashak bazasining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq. G‘ijduvon tumani sug‘oriladigan yerlari, g‘alla va yem-xashak ekinlari yetishtiriladigan maydonlari tufayli chorvachilikni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, g‘alla yetishtirish hajmining oshishi yem-xashak ta‘minotini yaxshilab, hayvonlar mahsuldorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tumanda qoramolchilik asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, sigir, buqa va zotdor qoramollar boqish orqali sut va go’sht mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qo‘y va echkichilik esa tuman sharoitiga juda mos bo‘lib, qo‘y junidan yengil sanoat, go’shti esa aholi iste‘moli uchun muhim manba hisoblanadi. Parrandachilik ham tomorqa xo‘jaliklarida keng rivojlanib, tuxum va go’sht mahsulotlari yetishtirish orqali bozor talabini qondirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Chorvachilikni rivojlantirish omillari.

Tumanda chorvachilikning yuksalishiga bir nechta omillar ta’sir qilmoqda:

- yem-xashak bazasining kengayishi;
- qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati;
- yangi islohotlar, seleksiya ishlari hamda zotdor hayvonlar importi;
- veterinariya xizmatlarining yaxshilanib borayotgani;
- kichik biznes va oilaviy chorvachilik xo‘jaliklarini rivojlantirish.

Shu bilan birga, tarmoqda ayrim muammolar ham mavjud. Yem-xashak narxining o'sishi, suv resurslarining cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanmasligi, bozorga mahsulot yetkazib berishdagi logistik qiyinchiliklar chorvachilikni takomillashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, seleksiya va zotdor hayvonlar bilan ishlashdagi ilmiy yondashuvlar yetishmayotgani mahsuldorlikni oshirish jarayonini sekinlashtirmoqda.

G'ijduvon tumani chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Tumanning tabiiy-iqlim sharoiti, mavjud yaylovlar va qishloq xo'jaligi ekinlari bilan integratsiya chorvachilikni samarali yuritish imkonini beradi. Kelgusida chorvachilikni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, veterinariya xizmatini kuchaytirish va chorva mahsulotlarini qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali tuman iqtisodiyoti yanada mustahkamlanadi. Mazkur soha rivoji nafaqat tuman aholisining farovonligini oshiradi, balki mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: “Университет”, 2014. –404 б.
3. О'zbekiston geografik atlas. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi. Toshkent.: 2016. – 192b.
4. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi Buxoro viloyat statistika boshqarmasi axborotnomasi, 2023-yil
5. Muhamadovich, M. A., Elmurodovna, M. I., & Davronovna, K. D. (2020). The Desert Tourism And Opportunities For Its Development (On The Example Of Bukhara Region). The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, , 68-73.